XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-60-157-3-49-K/23 Zarbdor tuman hokimligi

Zarbdor tumanining 2024 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Jizzax viloyati Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi №01-20-08-01-33/425-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Zarbdor tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 67 861 400,0 ming. so‘m, respublika byudjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar 16 035 062,0 ming.so‘m, xarajatlari 126 671 050,0 ming.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 42 774 588,0 ming. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yori 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari hamda viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga o‘tkaziladigan tartibga soluvchi transfert miqdori 4-ilovalarga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti zahira jamg‘armasi hajmi 1127018,0 ming. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun zahira jamg‘armasi tegishli byudjet tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

8. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. 2024-yil mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga o‘tkaziladigan mablag‘ miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

a) Quyidagi soliq turlari tuman mahalliy byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

- Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

- Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;

- Aksiz solig‘i:- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq;

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

b) Quyidagilar viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- Aylanmadan olinadigan soliq;

- Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

- Davlat bojlari;

- Yig‘imlar;

- Xususiylashtirshdan tushum;

12. Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha tuman aholisining viloyat aholisi sonidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

13. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi (F.Hamzaev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Axmedov), tuman Soliq inspeksiyasi (B.Qulmatov) va mas’ul muassasalar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (B.Qulmatov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirishvazifasi yuklatilsin.

15. Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi (Q.Nurmatov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Qulmatov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (Z.Qarshibaev) lar 2024 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 m^2 uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin va ushbu soliq turi undirilishi borasidagi o‘zgarishlar tadbirkorlik sub’ektlariga iqtisodiy jihatdan qanday ta’sir etishi yuzasidan doimiy monitoring o‘rnatib, Xalq depututlari tuman sessiyasiga axborot kiritib borsin.

16. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

17. Tuman hokimligi:

Tuman mahalliy byudjeti jami xarajatining 11,4 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlari agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma’sul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi (F.Hamzaev), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli tashkilotlar boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari

bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashgahar chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

19. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

20. Mazkur qaror “Zarbdor” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

21. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Z.Ruziyev**

Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
1-ilova

Zarbdor tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami daromadlar (Kontengent)	shundan			
			O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Soliq rejasi	Shu jumladan taqsimlanishi	
					Tuman byudjetiga	Viloyat byudjetiga
JAMI		**102 757 062,0**	**16 035 062,0**	**86 722 000,0**	**67 861 400,0**	**18 860 600,0**
I	**Taqsimlanuvchi daromadlar**	**16 035 062,0**	**16 035 062,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**
	shu jumladan:	0,0				
	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	16 035 062,0	16 035 062,0			
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	0,0				
II	**Daromadlar jami**	**82 034 000,0**	**0,0**	**86 722 000,0**	**67 861 400,0**	**18 860 600,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	567 000,0		567 000,0	567 000,0	
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	40 753 000,0		40 753 000,0	32 602 400,0	8 150 600,0
	Korxonalar aylanmasidan soliq	4 688 000,0		4 688 000,0		4 688 000,0
3	**Aksiz solig‘i, jami**	**4 706 000,0**	**0,0**	**4 706 000,0**	**4 706 000,0**	**0,0**
	shu jumladan:					
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	4 706 000,0		4 706 000,0	4 706 000,0	
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 365 000,0		3 365 000,0	3 365 000,0	

5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	9 476 000,0		9 476 000,0	9 476 000,0	
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 278 000,0		7 278 000,0	7 278 000,0	
8	YATT uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	721 000,0		721 000,0	721 000,0	
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 390 000,0		5 390 000,0	5 390 000,0	
10	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	0,0		0,0	0,0	
11	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 267 000,0		3 267 000,0	3 267 000,0	
12	Yig‘imlar	600 000,0		600 000,0		600 000,0
13	Davlat boji	2 589 000,0		2 589 000,0		2 589 000,0
14	Jarimalar	2 370 000,0		2 370 000,0		2 370 000,0
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	39 000,0		39 000,0	39 000,0	
16	Davlat unitar korxonalari sof foydasidan ajratmalar	13 000,0		13 000,0		13 000,0
17	Xususiylashtirshdan tushum	900 000,0		900 000,0	450 000,0	450 000,0

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Zarbdor tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari

ming.so‘m

№	Ko‘rsatkichlar	2024 yil
Zarbdor tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**126 671 050,0**
1	Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi	8 801 796,0
2	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	12 215 523,0
3	Tuman Sog‘liqni saqlash tizimidagi tashkilotlar	53 064 557,0
4	Tuman Madaniyat bo‘limi	1 639 051,0
5	Tuman Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi	4 848 953,0
6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	58 789,0
7	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tashkilotlari	891 806,0
8	Tuman irrigatsiya bo‘limi	914 950,0
9	Tuman fermer, dexkon, xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi	827 955,0
10	**Tuman obodonlashtirish boshqarmasi jami**	**11 891 348,0**
	Shundan	
	Yo‘llarini saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari	4 000 000,0
11	**Davlat boshqaruv organlari jami**	**31 516 322,0**
	Shundan	
	Tuman hokimining zaxira jamg‘armasi	1 127 018,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	12 842 240,0
	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	718 281,0

Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024 yil uchun umumdavlat soliqlaridan Zarbdor tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

foiz hisobida

T/R	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (qat’iy belgilangan soliq)	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Ijara to‘lovi	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Suv resurslari-dan foydalan-ganlik uchun soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalan-ganlik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Xususiy-lashti-rishdan tushum (Davlat ob’yekt-larini sotishdan tushum)
1	Zarbdor tumani	80	100	100	100	100	100	100	100	100	100	50

Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
4-ilova

Zarbdor tuman mahalliy byudjetining 2024 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Jami daromadlar	shundan			Mahalliy byudjet xarajatlari
		Mahalliy byudjet daromadlar	O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	Tartibga soluvchi transfert miqdori	
Zarbdor tumani	126 671 050,0	67 861 400,0	16 035 062,0	42 774 588,0	126 671 050,0

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024 yil uchun Zarbdor tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Zarbdor tumani	431 000,0

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
6-ilova

Zarbdor tuman mahalliy byudjetidan 2024 yil uchun «Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi»ga ajratilgan mablag‘ miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Zarbdor tumani	12 842 240,0

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffifentlar

T/R	Hududlar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, mln. so‘mda	Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)		Yer solig‘ining stavkasi 2024 yil uchun (mln.so‘mda)
			Kamaytiruvchi	Oshiruvchi	
1	Mustaqillik MFY	41,04	0,90		36,93
2	Oybek MFY	41,04	0,90		36,93
3	Nurobod MFY	41,04	0,90		36,93
4	Tinchlik MFY	41,04	0,90		36,93
5	Oqbuloq MFY	41,04	0,90		36,93
6	Ravot MFY	41,04	0,90		36,93
7	Navoiy MFY	41,04	0,90		36,93
8	Yangixayot MFY	41,04	0,90		36,93
9	Lalmikor MFY	41,04	0,90		36,93
10	Toza-urug‘ MFY	41,04	0,90		36,93
11	Yangiobod MFY	41,04	0,90		36,93
12	Sharq Yulduzi MFY	41,04	0,90		36,93
13	Shodlik MFY	41,04	0,90		36,93
14	Taraqqiyot MFY	41,04	0,90		36,93
15	Do‘stlik MFY	41,04	0,90		36,93
16	Navro‘z MFY	41,04	0,90		36,93
17	Adirobod MFY	41,04	0,85		34,88
18	Toshkesgan MFY	41,04	0,85		34,88
19	Yangikent MFY	41,04	0,82		33,65
20	Nurafshon MFY	41,04	0,82		33,65
21	Andijon MFY	41,04	0,85		34,88
22	Oqar MFY	41,04	0,82		33,65
23	Navbohor MFY	41,04	0,82		33,65

24	Yoshlik MFY	41,04	0,82		33,65

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-60-157-3-49-K/23-son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlar

T/R	Hududlar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffisiyent (0,7 dan 3,0 gacha)		Yer solig‘ining stavkasi 2024 yil uchun (mln.so‘mda)
			Kamaytiruvchi	Oshiruvchi	
1	Adirobod MFY	326,4	0,77		251,32
2	Andijon MFY	326,4	0,76		248,06
3	Dustlik MFY	326,4	0,77		251,32
4	Yoshlik MFY	326,4	0,76		248,06
5	Lalmikor MFY	326,4	0,77		251,32
6	Mustakillik MFY	326,4	0,78		254,59
7	Navbaxor MFY	326,4	0,76		248,06
8	Navoiy MFY	326,4	0,78		254,59
9	Navro‘z MFY	326,4	0,77		251,32
10	Nurafshon MFY	326,4	0,75		244,80
11	Nurobod MFY	326,4	0,78		254,59
12	Oybek MFY	326,4	0,78		254,59
13	Oqar MFY	326,4	0,76		248,06
14	Oqbuloq MFY	326,4	0,78		254,59
15	Ravot MFY	326,4	0,78		254,59
16	Taraqqiyot MFY	326,4	0,76		248,06
17	Tinchlik MFY	326,4	0,78		254,59
18	Toza urug‘MFY	326,4	0,78		254,59
19	Toshkesgan MFY	326,4	0,76		248,06
20	Sharq Yulduzi MFY	326,4	0,78		254,59
21	Shodlik MFY	326,4	0,76		248,06
22	Yangi xayot MFY	326,4	0,78		254,59

23	Yangikent MFY	326,4	0,76		248,06
24	Yangiobod MFY	326,4	0,78		254,59